

O'ZBEKISTONDA ILK DAVLATCHILIK TARIXINING MANBALARDA AKS ETISHI

Yakobjanov J.J

PhD, dots.

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'lgan va keng yoyilgan hududlarda shakllangan. O'zlashtiruvchi xo'jalik tuzumidagi qabilalarga nisbatan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tgan qabilalarda davlat bosqichiga o'tish ancha barvaqt boshlangan. Bunda asosan mahsuldorlikning o'sishi, odamlarning o'troq hayot tarziga o'tishi, hunarmandchilik, savdo – sotiq va mahsulot ayrboshlashning yuzaga kelishi salmoqli o'rin egallagan.

Ilk davlatlar dexqonchilik yuzaga kelgan hududlar – Ikki daryo oralig'i, Misrda paydo bo'lib, asta sekin qo'shni hududlarga ham (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy) tarqaldi. Arxeologik ma'lumotlarga asosan, miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'zbekistonda (Surxon voxasi) dexqonchilik madaniyati ta'sirida ilk davlatchilikka o'tila boshlandi.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug'orish tizimi maydoni bilan chegaralanganligi bois, kichik hududlarda, aholi zich joylashgan vohalarda paydo bo'ldi. Bunday voxalar aholisi uchun tashqi xarbiy bosqinlardan ximoyalalanish, makonlar va manzilgoxlar xududini mudofaa qilish, sug'orish va dexqonchilik ishlarini tashkil qilish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarini yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi. Bu vazifalarni xal qilish zaruriyati, boshqaruv va qabila hayoti bilan bog'liq boshqa turli ishlarni amalga oshirish maqsadida qabila orasidan hurmatga loyiq kishilar – yo'l boshchilar ajralib chiqib boshladi.

Shu tariqa ijtimoiy – iktisodiy munosabatlar taraqqiyoti aloxida o'ringa ega bo'lgan, qabiladagi ijtimoiy va xo'jalik hayoti ustidan nazorat qiluvchi kishilarning ajralib chiqishiga olib keldi, biroq bular xali hukmron tabaqaga aylanmagan edilar. Jamiyatda dastlab axloqiy va obro' nuqtai nazaridan ajralib turgan kishilar asta sekin jamiyatdagi otadan o'g'ilga meros qoluvchi hokimiyat egalariga aylanib bordilar.

O'zbekistondagi dastlabki davlat uyushmalari ham dexqonchilik vohalari aholisini chetdan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni xuquqiy jihatdan boshqarib turish uchun tashkil topdi. O'zbekistonning bronza davriga oid ilk davlatchiligi xaqida faqatgina arxeologik manbalar mavjud bo'lsa, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmiga oid tarixi yozma manbalarda qisman yoritilgan.

“Avesto”, Axamoniylar davri mixxat yozuvilari, antik davr Rim va Yunon tarixchilari asarlarida O'zbekistonning davlatchilik tarixi xaqida ilk malumotlar

jamlangan. Biroq, faqatgina yozma manbalar yordamida bu masalaning mohiyatini to'liq ochib berilishi imkonsiz bo'lgani uchun bu davrdagi davlatchilik tarixi, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush tarzi arxeologik manbalar yordamida ham o'rganiladi. “Avesto” tili, viloyatlarning tarixiy geografiyasi nomlanishi kabi xususiyatlariga ko'ra Xorazm xududlarida paydo bo'lgan xisoblanadi. “Avesto”ning eng qadimgi geografik nomlari O'rta Osiyo va unga chegaradosh viloyatlar bilan bog'lanadi va unda qadimgi geografik tushunchalar, xududiy, etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy va siyosiy tuzum, Zardushtiylarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi xaqidagi ma'lumotlar va boshqalar o'rin olgan. Axamoniylar davri yozuvlarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida ma'lumotlar saqlangan bo'lib, bu yozuvlar miloddan avvalgi VI – V asrlarga oid va ular Bexustun hamda Naqshi Rostam qoyatoshlarida, shuningdek Suza, Persepol, Xamadon shaxarlaridagi saroy xarobalaridan topib o'rganilgan.

Avestodagi ma'lumotlar, Gerodot va Gekatey asrlari (Qatta Xorazm), shuningdek, Ktesiyning, Qadimgi Baktriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar bu davlatlarining shakllanish jarayonini axmoniylargacha bo'lgan davrda deb xisoblaydilar va mil. av. IX-VII asrlar deb belgilaydilar²⁰.

Antik dunyo mualliflaridan Ktesiy (miloddan avvalgi V asrda), Gekatey (miloddan avvalgi VI – V a.a), Geradot (mil.av. V a) va boshqalar ham O'zbekiston hududida qadimdan mavjud bo'lgan davlatlar, xalqlar, ularning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush tarzi xaqidagi ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Shuni ham ta'kidlash lozimki, XIX asr oxiridan boshlab, oldingi yillar jaxon tarixshunosligida O'rta Osiyodagi ilk davlatlarning paydo bo'lish muammolari xaqida va ularni o'rganishda yuqorida eslatilgan mualliflarning asarlari, “Avesto” ma'lumotlari va boshqalar asos bo'ldi.

O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VII – VI asrlarda qulchilik munosabatlari deyarli rivojlanmagan, uning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi “Uy qulchiligi” bo'lgan. Bunday uy qullari “Avesto”da “Vaysa” lar deb atalgan. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, o'zbek xalqining shakllanishida va uning davlatchiligi paydo bo'lishida tub o'troq dexqon axoli aloxida o'rin tutgan. O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti, qadimgi shaxarlar tarixi va taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Qolaversa, O'zbekistonda ilk davlatchilik miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida shakllanib, asosan «Avesto», Behistun yozuvlari, qadimgi yunon (Arrian, Strabon) va xitoy manbalarida aks etgan. Eng qadimgi davlat uyushmalari sifatida Baqtriya (Baxdi) va Xorazm (Xvarizam) tilga olinib, ular bronza davri madaniyatlari asosida rivojlangan. Jumladan, Avesto o'lkamizdagi ilk davlatlar, ijtimoiy tuzum va

²⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т; Шарқ, 2001. Б. 368

xo'jalik hayoti haqidagi eng muhim yozma manba hisoblanadi. Behistun yozuvlari esa miloddan avvalgi VI-V asrlarda So'g'diyona, Baqtriya va Xorazm hududlari Ahamoniylar tarkibiga kirganligini tasdiqlovchi mixxat yozuvlari haqida ma'lumot beradi. Qadimgi Yunon manbalari sanallgan Arrian va Strabon asarlarida esa Xorazm va Baqtriya hududlari, ularning geografik joylashuvi va xalqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu manbalar O'zbekiston hududida 3000 yillik davlatchilik tarixiga ega bo'lgan Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm kabi ilk siyosiy tuzilmalar shakllanganligini tasdiqlaydi